



Atamuratov Murat Utebergenovich,

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti prorektori
Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. atamuratov78@rambler.ru;*

O'ZBEKISTONNING MILLIY MAQSADLARGA ERISHISHDA BOSHQARUV KADRLARINING O'RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya. Maqolada BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari asosida O'zbekistonning milliy maqsadlarga erishishda boshqaruv kadrlarining o'rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, bugungi kunda rahbar kadrlarga qo'yiladigan talablar, boshqaruv kadrlarida shakllantirilishi lozim bo'lgan kompetensiyalar tahlil etilgan. Rahbar kadrlarda boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqarilgan.

Tayanch tushunchalar: BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari, O'zbekistonning milliy maqsadlari, boshqaruv kadrlari, boshqaruv kompetensiyalari.

Аннотация. В статье освещается роль и значение менеджмента в достижении Узбекистаном национальных целей, основанных на Целях устойчивого развития ООН. Также анализируются требования к менеджерам сегодня, компетенции, которые необходимо сформировать у управленческого персонала. Разработаны практические предложения и рекомендации по формированию управленческих компетенций у управленческого персонала.

Ключевые слова: Цели устойчивого развития ООН, национальные цели Узбекистана, управленческий персонал, управленческие компетенции.

Annotation. The article highlights the role and importance of management in Uzbekistan's achievement of national goals based on the UN Sustainable Development Goals. Also, the requirements for managers today, the competencies that need to be formed in management personnel are analyzed. Practical suggestions and recommendations on the formation of management competencies in management personnel were developed.

Keywords: UN Sustainable Development Goals, national goals of Uzbekistan, management staff, management competencies.

Kirish. Barqaror rivojlanish maqsadlari – BMTning butun jahon davlatlariga nisbatan dunyoda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik vaziyatni har tomonlama yaxshilashga qaratilgan global chaqirig'i bo'lib, u insonlarning farovon turmushini yanada yaxshilash, atrof muhitni asrab avaylash va biologik xilma-xillikni saqlab qolishga imkon beradi. 2030-yilgacha Barqaror rivojlanishning asosiy maqsadi – qashshoqlikni bartaraf etish va dunyoni barqaror rivojlanishga yo'naltirishdagi yangi global majburiyatdir. Ushbu hujjat Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining 2015-yilning sentabr oyida

o'tkazilgan sammitida qabul qilingan 70-son rezolyutsiyasiga muvofiq 17 ta maqsad va 169 ta vazifani o'zida ifoda etadi.

Maqsad va uni asoslash. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari asosida O'zbekistonning milliy maqsadlarini amalga oshirish rahbar kadrlar oldiga qator vazifalarni qo'yadi. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish yuzasidan qabul qilingan davlat dasturlarida mazkur Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlariga hamohang aniq



1-rasm. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari

chora-tarbiyalar belgilangan. Jumladan, “Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga mo’ljallangan davlat dasturida 284 bandan iborat vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish davlat boshqaruvining barcha bo’g’inidagi rahbar kadrlarni boshqaruv kompetentligi va mas’uliyatini oshirishni taqozo etadi.

Milliy maqsadlar va vazifalarning 2030-yilgacha bo’lgan davrda amalga oshirish bo’yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash O’zbekiston Respublikasini barqaror rivojlantirish sohasidagi Milliy maqsadlar va vazifalarning tatbiq etilishini tashkil etish bo’yicha “yo’l xaritasi”ni o’z vaqtida va sifatli bajarishi uchun fuqarolar va davlat organlari, xo’jalik boshqaruvi organlari hamda O’zbekiston Respublikasining boshqa tashkilotlari o’rtasida aloqani ta’minlash, shu bilan birga Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlarini bajarishda Parlament, hukumat va fuqarolik jamiyati institutlarining amaliy hamkorligini yo’lga qo’yish, bu masalada muntazam ravishda parlament va jamoatchilik eshituvlarini tashkil etish bo’yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Buni Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning “Harakatlar strategiyasining mazmun-mohiyati Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan to’la hamohang ekanini ta’kidlashni istardim”¹ degan fikrlari bilan izohlashimiz mumkin.

O’zbekiston Respublikasini barqaror rivojlantirish sohasidagi Milliy maqsadlar va

vazifalarning 2030-yilgacha bo’lgan davrda amalga oshirilishini nazorat qilish bo’yicha Parlament komissiyasi tashkil etildi. Parlament komissiyasi O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzurida doimiy faoliyat ko’rsatuvchi hay’at organi hisoblanadi. Milliy maqsadlar va vazifalarni bajarish, sektorlararo muvofiqlashtirishni va Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga integratsiyalangan yondashuvni ta’minlash bo’yicha davlat organlari, aloqador vazirlik va idoralar samarali ishlashini tashkil etishni ta’minlashda O’zbekiston Respublikasini barqaror rivojlantirish sohasidagi Milliy maqsadlar va vazifalarni 2030-yilgacha bo’lgan davrda amalga oshirish bo’yicha muvofiqlashtiruvchi kengashga ko’maklashadi.

BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo’yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2018-yil 20-oktabr kuni “2030-yilgacha bo’lgan davrda Barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 841-sonli qarorni qabul qildi. Mazkur qaror doirasida 2030-yilgacha bo’lgan davrda hukumat zimmasiga barqaror rivojlanish yo’nalishida 16 ta milliy maqsad va 125 ta vazifa yuklatildi.

Milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish bo’yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etilib, O’zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va kambag’allikni qisqartirish vazirligi uning ishchi organi qilib belgilandi. Ishchi organ Milliy maqsad va vazifalarning amalga oshirilishi uchun mas’ul bo’lgan davlat va xo’jalik boshqaruvi organlari tomonidan bajarilishi shart bo’lgan Milliy maqsad

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 19 сентябрь куни Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида нутқи // <http://uz.uz/uz/posts/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyeev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017>

va vazifalarni zarur darajada bajarish bo'yicha qarorlar qabul qilish; Milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish bilan bog'liq masalalarni ishlab chiqish va hal qilish uchun tegishli mutaxassislar va ekspertlarni, shu jumladan huquqlarga ega bo'lgan xorijiy, shuningdek, ilmiy va boshqa muassasalarni jalb qilish huquqlariga ega ekanligi belgilab qo'yildi. Vazirlar Mahkamasining qarori bilan "yo'l xaritasi" tasdiqlandi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida O'zbekistonni rivojlantirishning keyingi besh yillik strategiyasi qabul qilinganligini, ushbu "Strategiya – yangilanish jarayonlarining haqiqiy harakatlar dasturi" ekanligini alohida qayd etib, Harakatlar strategiyasining mazmun-mohiyati Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan to'la hamohang ekanini ta'kidlab o'tdi.

Darhaqiqat, Respublikamizda BMTning 2030-yilga qadar insoniyatni ravnaq toptirishning 17 ta yo'nalishini o'z ichiga olgan Barqaror taraqqiyot maqsadlarini amalga oshirishda bir qator yutuqlar qo'lga kiritilmoqda. Xususan, mamlakatimizda ta'lim sifati hamda xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini va faolligini oshirish, bolalar o'limini kamaytirish; onalar sog'lig'ini yaxshilash, turli yuqumli va xavfli kasalliklarning oldini olish, ekologik barqarorlikni ta'minlash borasida ijobiy natijalarga erishilmoqda.

BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari asosida O'zbekistonning milliy maqsadlariga erishishda rahbar kadrlarga qo'yiladigan talablar. Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish rahbar kadrlarning faol ishtirokini talab etadi. Binobarin, zamonaviy rahbar kadrlar uzoq muddatga mo'ljallangan barqaror rivojlanish maqsadlarining ustuvor vazifalarini amalga oshirishda asosiy tashabbuskor bo'lishi lozim. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning: "Odamlar orasida yashash, ularning dardiga quloq solish, aholining ehtiyojlari va qonuniy talablarini amalga oshirish uchun tezkor choralar ko'rish – har bir rahbarning asosiy vazifasi" hisoblanadi, shuningdek, "kadrlar bilan ishlashda yo'l qo'yiladigan nuqsonlar ushbu kamchiliklarning asosiy sabablaridan biridir. Ayni vaqtda qo'yilgan vazifalarni mas'uliyat bilan va professional darajada amalga oshirishga qodir bo'lgan kadrlarning

amaliy zaxirasi yaratilmaganligini afsus bilan qayd etish kerak"² degan fikrlari boshqaruv kadrlar tayyorlash tizimini bugungi zamon va davr talabidan kelib chiqib, qayta isloh etish dolzarb ekanligini ko'rsatmoqda.


Mazkur maqsadlar asosida ishlab chiqilgan O'zbekistonning milliy maqsadlarga erishishi salohiyatli rahbar va boshqaruv kadrlar tayyorlash masalasi bilan uzviy bog'liq. Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning hozirgi bosqichida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining rahbar kadrlariga qo'yilayotgan yangi talablar ularning mazmun-mohiyatiga alohida e'tibor qaratmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Bugun hayotning o'zi bizdan professional, tezkor va samarali davlat xizmati tizimini shakllantirish, yangicha fikrlaydigan, tashabbuskor, el-yurtga sadoqatli kadrlarga keng yo'l ochish bo'yicha samarali tizim ishlab chiqishni talab etmoqda", degan fikrlari O'zbekistonning milliy maqsadlariga erishishda boshqaruv kadrlarining o'rni yuqori ekanligidan dalolat beradi³.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari asosida O'zbekistonning milliy maqsadlarini amalga bajarilishini ta'minlash yuzasidan kadrlar salohiyatini oshirish sohasida olib borish lozim bo'lgan ishlar quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

1. Kadrlar siyosati bilan bog'liq me'yoriy-huquqiy hujjatlarni mavjud talablar darajasida takomillashtirib borish.
2. Kadrlar tayyorlash sohasida raqobatbardoshlik sifatlarini oshirib borish.
3. Rahbar va boshqaruv kadrlarining uzluksiz ta'lim olishlari va malakalarini muntazam takomillashtirib borishlarini ta'minlash.
4. Kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimidagi barcha ta'lim muassasalarining zamonaviy talablar darajasida faoliyat olib borishini muntazam ta'minlab borish.
5. Kadrlarni tanlash tizimining zamonaviy ilg'or usullarini amaliyotga joriy qilish.
6. Kadrlarning ish faoliyati samaradorligi monitoringini olib borish.

² Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга кураимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 481.

³ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси //



2-rasm. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari asosida O'zbekistonning milliy maqsadlarga erishishda boshqaruv kadrlariga qo'yiladigan talablar

7. Kadrlar boshqaruvining elektron tizimini yaratish va amalga joriy qilish.

Jahonning yetakchi davlatlari tajribasidan kelib chiqqan holda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari asosida O'zbekistonning ushbu sohadagi milliy maqsadlarga erishishda boshqaruv kadrlarining mas'uliyatini oshirish borasida quyidagilarga e'tibor qaratilishi lozim:

1. Davlat xizmatchilarida professionallik darajasining pastligini bartaraf etish.
2. Davlat xizmatchilariga professional ta'lim berish tizimining samaradorligini oshirish.
3. Xizmat uchun kadrlarni professional tayyorlash, tanlab olish va malakasini oshirishning tashkiliy mexanizmlaridagi noaniqliklarni bartaraf etish.
4. Hokimiyat organlarini malakali kadrlar bilan ta'minlash vazifalarini bajaruvchi davlat boshqaruvi kadrlarini tayyorlash sohasidagi o'quv muassasalar tarmog'ini yaratish.

5. Davlat boshqaruvi sohasida kadrlar tayyorlash yuzasidan berilgan davlat buyurtmasi tizimini shakllashtirish va hokimiyat organlari funktsiya va vazifalarini bajarish bo'yicha davlat xizmatchilarini maqsadli tayyorlash.

6. Mazkur sohada professional ta'limni boshqarishning samaradorligini oshirish.

7. Davlat xizmatchilarini tayyorlash jarayonida davlat organlari va o'quv muassasalari o'rtasida o'zaro hamkorlikning samarali vosita va shakllarining mavjud emasligini bartaraf etish.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Kelgusida biz mahalliy hokimlarni bevosita xalq tomonidan saylash masalasi haqida ham o'ylab, muhokama qilib ko'rishimiz kerak. Har bir hudud o'z rahbarini o'zi saylasa, rahbarlarning xalq va jamiyat oldidagi mas'uliyatini keskin oshirishga erishish mumkin.

Shu bilan bir qatorda ta'kidlash lozimki, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari asosida O'zbekistonning

milliy maqsadlarga erishishda rahbar va boshqaruv kadrlarni tanlashga qo'yilgan yangi demokratik talablar tizimini yaratish muhim (2-rasm).

Rahbar va boshqaruv institutsional tizimining yangilanishi kadrlar faoliyatini baholash mezonlarini ham o'zgartiradi. Endi rahbar va boshqaruv kadrlar faoliyatiga baho berishda, avvalo, inson manfaatlari ustuvorligiga amal qilish muhim mezonga aylandi. Davlat idoralarning xalqqa xizmat qilishi muhim belgilovchi ahamiyatga ega. Bundan tashqari, qonun ustuvorligi, adolat prinsiplariga tayanish milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, zamonaviy rahbarlik faoliyatlariga ega bo'lish, erkin va farovon hayot qurishga xizmat qilish, Vatanga sodiqlik, kompetentlik, milliy g'oyaga ishonch va e'tiqodning o'ziga xos mezonlaridir.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda nafaqat rahbar kadrlar salohiyatini yuksaltirish, balki hududlarda tashkil etilgan sektor faoliyatini ham takomillashtirish kerak. Mazkur jarayonda sektor rahbarlari va sektor ishchi guruh a'zolari mahallalarda aniqlangan muammolarni har tomonlama chuqur tahlil qilish va umumlashtirish asosida tumanlar (shaharlar)ni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish lozim:

- belgilarning **identifikatsiyasi**;
- muammoning **dolzarbligini** belgilash;
- **maqsadni** shakllantirish;
- mavjud **imkoniyatlarning** tuzilishini belgilash;
- **muammo yechimining muqobillarini** topish;
- mavjud muqobillarni **baholash**;
- muqobil variantlardan **birini tanlash**;
- **muammoning yechimini** tuzish;
- yechim variantini kasbdoshlar va rahbariyat tomonidan **e'tirof etilishi**;
- muammoni yechim **jarayonini ta'minlash**;
- yechimni tatbiq etish jarayonini **boshqarish**;
- tatbiq etilgan yechimni **baholash**.

Birlashgan millatlar tashkilotining barqaror rivojlanish maqsadlari asosida O'zbekistonning milliy maqsadlarga erishishda boshqaruv kadrlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahrining tumanlar va shaharlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha **quyidagilarni** bilishi muhim:

- ijtimoiy soha indikatorlari;

- iqtisodiyotni rivojlantirish indikatorlari;
- qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirish indikatorlari;
- kommunal xo'jaligini tashkil qilish va uy-joy masalalari;
- huquq-tartibot sohasidagi ko'rsatkichlar;
- xalq bilan muloqot, aholi tomonidan ko'tarilgan muammolarni yechish bo'yicha ko'rilayotgan choralarning samaradorlik ko'rsatkichlari;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalariga va Virtual qabulxonasiga kelib tushayotgan murojaatlarni ko'rib chiqish.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Oldimizga qo'ygan maqsad-muddaolarga yetish uchun bu ishlarni o'zimiz qilmasak, boshqa hech kim bizga chetdan kelib qilib bermaydi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, kadrlarning amaliy zaxirasini shakllantirish, ularni tayyorlash va qayta tayyorlashning muhim masalalarini o'z ichiga oladigan maqsadli dasturni ishlab chiqish vaqti keldi, deb o'ylayman.

Asosiy vazifa – bu yuqori kasb mahorati va zamonaviy tafakkurga ega, puxta o'ylangan, mas'uliyatli va javobgarlikni his etadigan, har tomonlama to'g'ri qarorlar qabul qila oladigan, belgilangan maqsadlarga erishadigan, fidoyi rahbarlar va mansabdor shaxslarning yangi tarkibini shakllantirishdan iborat. Bu borada hududiy boshqaruv organlari, eng avvalo, mamlakatimiz tuman va shaharlari hokimliklari uchun malakali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratishi zarur"⁴.

Rahbar va boshqaruv kadrlar tizimida dunyodagi bo'layotgan o'zgarishlar hamda O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashishi rahbar va boshqaruv kadrlardan innovatsion tafakkur, bozor konyukturasi va raqobatiga javob beradigan, ilg'or tajribalarni umumlashtira oladigan, mustaqil va tezkor qarorlar qabul qila oladigan kadrlarga bo'lgan ehtiyojning ortib borayotganligi bilan belgilanadi.

O'zbekistonda mazkur sohada amalga oshirilayotgan eng muhim natijalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi Farmoni

⁴ Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашим. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – Б. 26-27.



3-rasm. Milliy maqsadlarga erishishda rahbar kadrlar boshqaruv salohiyatini yuksaltirishga e'tibor qaratiladigan jihatlar

asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida yagona davlat kadrlar siyosatini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan ixtisoslashtirilgan organi tashkil etish bilan bog'liq vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Boshqaruv kadrlarida shakllantirilishi lozim bo'lgan kompetensiyalar. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining 1.2. "Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish" deb nomlangan bandida Davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish, davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarlik, moddiy va ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish, iqtisodiyotni

tartibga solishda davlat ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish orqali davlat boshqaruvi hamda davlat xizmati tizimini isloh qilish vazifasi belgilangan⁵⁵. Bu O'zbekistonda rahbar va boshqaruv kadrlar tizimining modernizatsiyalashish bosqichlarini o'rganish va tahlil qilish, istiqbolda rahbar va boshqaruv kadrlarni tayyorlash hamda tanlashning samarali tizimini joriy etish imkonini beradi.

Rahbar va boshqaruv kadrlarni tayyorlashning samarali tizimini shakllantirishga oid ijtimoiy-huquqiy, funksional va tashkiliy-siyosiy

⁵⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли Фармониغا 1-илова.

munosabatlarni takomillashtirishda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- professional faoliyat sohaslarining davlat va jamiyatga xos alohida turlariga doir davlat qonunlarini qabul qilish. Bunda:

- davlat kadrlar siyosati va davlat xizmatiga bevosita aloqador mehnat shakllari bilan bog'liq funksional ahamiyat kasb etadigan fuqarolar imkoniyatlarining tengligi;

- kadrlarning malakaviy, ishchanlik va axloqiy sifatlari, mas'uliyati va kompetentligi;

- kadrlar davriy yangilanishi va izchilligining muvofiqlashtirib borilishi;

- kadrlar barqarorligi, kadrlar tarkibi;

- kadrlar tayyorlash va tanlash tizimi, ularning vakolat va burchlari, partiyaviy xolisligi, siyosiy betarafligi;

- kadrlarning ijtimoiy va huquqiy himoyalanganligi, xizmat karyerasi uchun imkoniyatlarining ochiqchiligi;

- boshqaruv tizimi va xodimlarining xizmat faoliyati hamda xizmat axloqi ustidan nazorat (shu jumladan, jamiyat nazorati) kabi tamoyillar yetakchi ahamiyat kasb etadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari asosida O'zbekistonning milliy maqsadlarini amalga oshirish uchun boshqaruv kadrlari bugungi kunda quyidagi kompetensiyalarga ega bo'lishi kerak:

BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari asosida O'zbekistonning milliy maqsadlarini amalga oshirishda boshqaruv kadrlari bilishi kerak bo'lgan boshqaruv kompetensiyalari quyidagilardan iborat:

1. Boshqaruv professionalizmi (jamoani boshqara olish ko'nikmasi) kompetensiyasiga shaxsning vaziyatni tahlil qila olishi, jamoani umumiy maqsadlar sari boshqara olishi, natijalarni o'z vaqtida va sifatli bajara olishda mas'uliyat va talabchanlikka qaratilgan imkoniyatlarni to'liq amalga oshirish ko'nikmalari kiradi.

2. Yangi tajribaga ochiqchilik (o'zgarishlarni ijobiy qabul qilish orqali qimmatli tajriba sifatida qabul qila olish ko'nikmasi) kompetensiyasiga shaxsning kreativ yechimlar topishi uchun yangi ma'lumot, texnologiyalarga e'tibor qaratishi va uni amalda qo'llashi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishda to'plangan tajribadan samarali foydalanish va strategik yondashuvlarni hisobga olish ko'nikmalari kiradi.

3. Tizimli fikrlash (boshqaruv faoliyatida uchrashi mumkin bo'lgan murakkab muammolarni tahlil qila olish) kompetensiyasiga shaxsning vaziyat va uning elementlarini to'liq anglay bilish, katta hajmdagi ma'lumotlarni umumlashtira olish (qayta aloqa va umumiy dinamikani inobatga olgan holda), tartibga keltira olish va ma'lumotlar to'plamini boshqara olish ko'nikmalari kiradi.

4. Moslashuvchanlik (vaziyatga moslashish va boshqara olish) kompetensiyasiga o'zgaruvchan vaziyatlarga moslasha olish orqali ishning yangicha usullarini tashkil etish. Natijaga erishish uchun yangi shart-sharoitlarga tezda ko'nikish, yangi vazifalarni amalga oshirishda atrofdagilarning (jamoasi) fikrini eshita olishda ochiqchilik kabi ko'nikmalari kiradi.

5. Kommunikativlik (shaxslararo muloqot olib borish) kompetensiyasiga jamoasi bilan o'zaro samimiy munosabat o'rnatish, muloqotga kirishish, jamoani ishlantira bilish, yordam berish, xodimlar kayfiyatiga e'tibor berish va ularni e'tibor bilan eshitish, jamoada qaror qabul qilishning muqobil yo'llarini e'tiborga olish ko'nikmalari kiradi.

6. Ijtimoiy qadriyatlar (inson omili) kompetensiyasiga shaxsning axloqiy qadriyatlarga, vatanparvarlik hamda sodiqlikni va tashkilotlarning axloqiy xususiyatlariga ishonchni nomoyon etish orqali o'zgalarga yordam berish, aniq faoliyat va ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan vaziyatda tazyiq ko'rsatmaslik, har bir shaxsning erkin fikr bayon etishiga yo'l qo'ygan holda xulosani guruhning o'ziga havola qilish ko'nikmalari kiradi.

7. Liderlik (jamoasi a'zolarini yetaklash va o'rnatish bo'lish) kompetensiyasiga shaxsning o'z jamoasini shakllantirish, jamoasi a'zolarini o'z atrofida jipslashtirish va motivatsiyalash, pozitiv fikrlash va tashkilotchilik ko'nikmalari kiradi.

BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari asosida O'zbekistonning milliy maqsadlarini amalga oshirishda boshqaruv kadrlari bilishi kerak bo'lgan maxsus kompetensiyalar

BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari	Boshqaruv kadrlari bilishi zarur bo'lgan maxsus kompetensiyalar
Kambag'allikni qisqartirish	Iqtisodiy kompetensiya. Iqtisodiy bilimlarning mavjudligi, rahbarlikda iqtisodiy usullardan foydalanish qobiliyati, oliy ta'lim muassasasi sharoitida mablag' topish va tijorat faoliyati tajribasi.
Sifatli ta'lim	Pedagogik kompetensiya. Pedagogik bilim va ko'nikmalarning mavjudligi, ta'lim muassasalari faoliyatini samarali tashkil etish. Bunga ta'lim muassasalarini boshqarish sohasidagi professional bilim va ko'nikmalarning mavjudligi, ilmiy, pedagogik va jamoatchilik ishlarida rahbarlik qilish va ishtirok etish tajribasi kiradi. Ilmiy kompetensiya. Tegishli fan sohalarida bilimlarning mavjudligi, ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish qobiliyati, mustaqil tadqiqot ishlarini o'tkazish tajribasi.
Gender tengligi	Huquqiy kompetensiya. Iqtisodiy, mehnat va boshqa huquq turlari, ta'lim tizimining ishlashi va rivojlanishi uchun me'yoriy asoslar, ushbu bilimlarni o'z faoliyatida qo'llash tajribasi va qobiliyati. Milliy va umummadaniy kompetensiya. Vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.
Munosib mehnat va iqtisodiy o'sish	
Tengsizlikni qisqartirish	
Tinchlik, adolat va samarador institutlar	
Toza suv va sanitariya	Ekologik kompetensiya. Atrof-muhit kompetensiyasi umumiy ta'limda shakllangan barcha asosiy vakolatlariga – rahbar kadrlarning barqaror rivojlanish qadriyatlarini, inson faoliyatining turli xil turlari va sohalarida paydo bo'ladigan ijtimoiy muammoli ekologik vaziyatlarda ekologik fikrlash va xatti-harakatlar uslubini qo'llash qobiliyatiga singib boradi.
Oziq-ovqat xavfsizligi	
Sog'lik va farovonlik	
Iqlim o'zgarishi	
Quruqlikdagi ekotizimlarni saqlash	
Barqaror va ishonchli energiya	"Aqlli energetika tizimi" joriy eta olish kompetensiyasi. Barqaror, iqtisodiy samarali va ishonchli energiya tizimini joriy etish, energiya ishlab chiqarish infratuzilmasi va iste'moli bo'yicha xizmat ko'rsatish, iste'molchilar va texnologiyalarni rag'batlantirish orqali integratsiya qilish va muvofiqlashtirish.
Industriallashtirish, innovatsiyalar va infratuzilma	Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi. Mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi – aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur kompetensiyalar umumta'lim fanlari orqali o'quvchilarda shakllantiriladi.
Barqaror shaharlar va aholi punktlari	"Aqlli shahar" innovatsion texnologiyalarini joriy eta olish kompetensiyasi. Shaharlarda zamonaviy muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalarini yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga doir malaka va bilimlarga ega bo'lish.
Mas'uliyatli iste'mol va ishlab chiqarish	Natijaga yo'nalganlik (samarali faoliyat) kompetensiyasiga rejalashtirilgan natijalarga erisha olish qobiliyati, natijalarga erishishda tashabbuskorlik va qat'iyatlilik ko'nikmalari kiradi.

Barqaror taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik	Kommunikativ kompetensiya. Ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi. Jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.
---	--

Boshqaruv kadrlari oldida turgan dolzarb vazifalar. Birlashgan Millatlar Tashkilotining barqaror rivojlanish maqsadlari asosida O'zbekistonning milliy maqsadlarga erishishda boshqaruv kadrlari faoliyati samarali bo'lishi uchun **birinchidan** rahbar kadrlarni tanlash prinsiplari va qonuniy asoslarini takomillashtirish kerak bo'ladi degan xulosani keltirib chiqaradi. **Ikkinchidan**, rahbarlikka oid bilimlar, ayniqsa, ushbu faoliyatda muvaffaqiyatga erishishni ta'minlaydigan, shuningdek, unga to'sqinlik qiladigan xususiyatlar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ularni qurollantirish kerak. **Uchinchidan**, zamonaviy rahbar kadrlarga qo'yiladigan talablar va mas'uliyat mezonlaridan har bir rahbar xabardor bo'lishi kerak. Bu rahbarning o'z faoliyatini samarali tashkil etishga yordam beradi. **To'rtinchidan**, muvaffaqiyatli rahbarda bo'lishi kerak bo'ladigan zarur sifatlar – adolatlilik, xolislik rahbarlik faoliyatida aks etishi jamiyatimizda demokratik tamoyilning yuqori ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. **Beshinchidan**, har bir rahbar aholiga davlat xizmatlari ko'rsatishning samarali usullarini bilishi muhim ahamiyat kasb etadi. **Oltinchidan**, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak".

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari asosida O'zbekistonning milliy maqsadlarga erishishda boshqaruv kadrlari statistik ma'lumotlar bilan ishlash ko'nikmasi va malakasiga ega bo'lishi kerak. Bunda quyidagi saytlardan samarali foydalanish imkoniyati mavjud: <https://stat.uz/> (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi); Birlashgan millatlar tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari platformasining sayti (<http://nsdg.stat.uz/uz>). Shuningdek, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari saytiga obuna bo'lishi, O'zbekistonda mazkur sohada amalga oshirilayotgan islohotlardan

xabardor bo'lishi lozim. BRMni amalga oshirish uchun mas'ul vazirlik va idoralar, shuningdek, BMT agentliklari bilan idoralararo yaqin hamkorlikda global ko'rsatkichlar tizimi asosida Davlat statistika qo'mitasi tomonidan BRM ko'rsatkichlarining milliy ro'yxati shakllantirildi. Ushbu ro'yxat global darajada taklif etilgan ko'rsatkichlar, shuningdek, rivojlanishning milliy ustuvor yo'nalishlarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. BRM indikatorlari ma'lumotlarini monitoring qilish va tarqatishning asosiy vositasi BRM bo'yicha hisobot berish milliy platformasidir (<http://nsdg.stat.uz/uz>). Ushbu platforma mamlakatdagi BRMga erishish bo'yicha mavjud vaziyat haqida ma'lumot to'plash va umumlashtirishning yagona markazi hisoblanadi.

Yakuniy qism. Bugungi kunda davlat boshqaruvini modernizatsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi, chunki davlat boshqaruvining samaradorligi ko'p jihatdan davlat organlari faoliyati sifatiga, shuningdek, davlat xizmatchilarining kasbiy mahoratiga bog'liq. Kun tartibiga qo'yilayotgan yangi vazifalarni hal etish, davlat organlari funksiyalarini amalga oshirishning samarali usullarini izlash davlat xizmatchilarining professional jihatdan yuqori mahoratga ega bo'lishini, ularning ham shaxs, ham o'z kasbining ustasi sifatida o'z-o'zini rivojlantirishga hozirligini talab qiladi. Davlat xizmatchisi o'z vazifalarini bajarishi jarayonida doimo ijodiy yondashuvning talab etilishi, kasbiy faoliyati davomida o'z bilim darajasini nazariy jihatdan muntazam oshirib borishiga zarurat sezadi. Jamiyat hayotining turli sohalarida samarali boshqaruv tizimini joriy etishi uchun davlat xizmatchilari professional tayyorgarlik darajasiga ega bo'lishi kerak. Shuning uchun boshqaruv sohasida mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash, ularning professional bilimlarini muntazam oshirishga qaratilgan ta'lim jarayoniga yangi usullar va texnologiyalarni joriy etishni zamon taqozo etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 19 сентябрь куни Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи // <http://uza.uz/uz/posts/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyeev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017>.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. — Тошкент: Ўзбекистон, 2017. — Б. 481.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // <http://uza.uz/uz/documents/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-22-12-2017>
4. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. — Тошкент: Ўзбекистон, 2016. — Б. 26-27.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли [Фармони](#)га 1-илова. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. — Тошкент: Ўзбекистон, 2018.
6. 2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясининг “Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили”да амалга оширишга оид **Давлат дастури** // Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли [Фармони](#)га 8-илова.
7. 2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Фаол тадбиркорлик, инновацион ғоялар ва технологияларни қўллаб-қувватлаш йили”да амалга оширишга оид Давлат дастури // Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 22 январдаги ПФ-5308-сонли [Фармони](#)га илова.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 6 майдаги “Аҳоли бандлигини таъминлаш бўйича олиб борилаётган ишлар натижадорлиги ва самарадорлигини оширишда маҳаллий ижро ҳокимияти ва иктисодий комплекснинг ҳудудий органлари раҳбарларининг шахсий масъулиятини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2960-сонли қарори // <http://nrm.uz>.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 8 сентябрдаги “Ўзбекистон Республикасида Маъмурий ислохотлар концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5185-сонли Фармони // www.lex.uz.
10. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик — ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. — Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
11. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. // “Халқ сўзи”, 2014 йил 15 январь.
12. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш — юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. // “Халқ сўзи”, 2016 йил 8 декабрь.
13. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга қўтарамиз. 1-жилд. — Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
14. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // <http://uza.uz/uz/documents/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-22-12-2017>.
15. Билимли авлод — буюк келажакнинг, тадбиркор халқ — фаровон ҳаётнинг, дўстона ҳамкорлик эса тараққиётнинг қафолатидир // Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 26 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси // <http://uza.uz/uz/politics/bilimli-avlod-buyuk-kelazhakning-tadbirkor-khal-farovon-ayet-08-12-2018>.
16. O'zbekiston Respublikasida milliy barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish ko'rsatkichlari bo'yicha statistik to'plam // <http://nsdg.stat.uz/uz/publications/16>
17. Barqaror rivojlanish maqsadlari — bu dunyoni o'zgartirishga yo'naltirilgan 17 ta maqsaddir // www.un.org/sustainabledevelopment/sustainable-development-goals // <http://nsdg.stat.uz/uz>.